

"ZAMONAVIY SHUM BOLA" ERKIN VOHIDOV IJODI MISOLIDA**Jamoldinova Risola***Andijon davlat universiteti 4-bosqich talabasi***Nurmuhammad Azizov***Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakillari Erkin Vohidov hamda G'ofur G'ulom nasri hamda nazmi qiyoslanadi. O'zbek adabiyotining shoh asarlaridan bo'lgan "Shum bola" qissasi va Erkin Vohidovning "Shum bola" she'rlari bir-biriga taqqoslanadi. O'xshash va farqli jihatlari hamda baiiyati, bugungi kundagi vazifalari, nazm va nasr kabi masalalar tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Erkin Vohidov, G'ofur G'ulom, shum bola, zamonaviylik, nazm, nasr.*

Har bir asarning paydo bo'lishida uning o'z tarixi, yaratilish sabablari bor, ayrim asarlar bor zarurat tufayli yoziladi, ayrim asarlar borki mashhurlik uchun yoziladi, lekin G'afur G'ulomning "Shum bola" asari zamon ruhiyatini, mustamlaka davrining zulmlarini o'zida yaqqol aks etgan asar hisoblandi.

Ushbu asar barchamizga ma'lum va mashxurki, bugungi kunda bolalarni kattalar aynan biror sho'xliklari sabab shum bola deya koyishadi. "Shum bola" asarida shum bola yani Qoravoyni yozuvchi yaxshi hayotdan umidvor qilib yaratdi. Qoravoy hayot unga behisob azoblar tayyorlasa ham, qaddini rostlab, yo'lida davom etdi.

Shum bola - shiddatli zukko va chaqqon bola obrazi bo'lib, u o'zining hazil-mutoyibasi, o'tkir aqli va jasorati bilan barcha qiyinchiliklarni yengib o'tadi. U o'yinqaroq, lekin do'stlariga sodiq, qiziquvchan, o'ziga xos ijodiy yondashuvga ega. Uning kulgili xatti-harakatlari va sarguzashtlari o'quvchini o'ziga jalb qiladi.

Qoravoy o'sha davr minglab bolalarining umumlashma obrazi deyish mumkin. Ammo bugungi shiddatli tarzda rivojlanayotgan davrda "shum bola" qiyofasi ham biroz o'zgardi.

Hatti-harakatlaridan tortib xaraktergacha "yangilangan shum bola"ni zamonaviy adabiyotimizda uchratamiz.

Erkin vohidov shum bola xususida G'ofur G'ulomga qaraganda ayricha yondashadi. Endi shum bola sodda, o'yinqaroq, zukko, chaqqon, sodiq va bazi-bazida yolg'on so'zlovchi obraz emas aksincha bazi-bazida rost so'zlovchi obraz shaklida gavdalanmoqda. Buni aynan Erkin Vohidovning "Shum bola" she'rini tahlil qilish orqali guvohi bo'lamiz.

Shundoq dedi, qulluq qilib,

Gapni qo'yib joyiga

Yangi zamon shum bolasi

Yangi zamon boyiga.

Ushbu misralardan ma'lumki, endi shum bola ham, Boy ota ham zamon ham boshqa.

“Qoshingizga yana keldim,
Qulluq qiling, Boy ota,
Sidqi dildan xizmat qilay,
Ishga oling, Boy ota.
Fazilatim ko’pdir, yana
Aybimni ham aytganman.
Lekin endi yangi zamon,
Men yolg’ondan qaytganman.

Yuqoridagi misralardan o’zbek adabiyoti zamon bilan hamnafas ekanligini ham anglash mumkin. Sababi asar yozilgan davrda yolg’on qoralangan bo’lsa, she’r yozilgan vaqtga kelib endi yolg’on ayb emas, balki bir hislat sifatida qaralmoqda. Yani jamiyatda, majlisda, kitobda, gazetada, davlat ishi, kotibiyat, rayosat yoyingki, siyosat ham yolg’onligi she’rda yoritiladi. Tom manoda zamon bilan birgalikda adabiy mavzular ham yangilandi.

Chunki endi yolg’onni hech
Aybgina deb bo’lmaydi
Aldaganni balo urmas
Aldangan ham o’lmaydi.

Insonlar orasida yolg’on shu darajaga keldiki, hatto yolg’on gap endi ayb emas, yolg’onchilik esa qoralanadigan xislat emas aksincha fazilatga aylandi. Endi Boy ota o’zgardi, asar mavzusida yolg’onga emas rostga toqat qilolmaydigan Boy otalar yetakchilik qila boshladi.

Yolg’oningga chidab edim,
Rost gaping ham bormidi?

Endi yolg’ondan emas rost gapdan qo’rqadigan zamon keldi, siyosatda, davlat ishida, majlisda, gazetada, hattoki kitobda yolg’on gapirganlargina tirik qolayotganligi haqida yozadi. Quyida zamonaviy Boy ota tilidan aytilgan misralarda esa buning guvohi bo’lamiz.

Yolg’oningdan omon qoldim
Rost gapingdan o’laman.
Xulosa

Ushbu maqolada G’afur G’ulom yaratgan shum bola va Erkin Vohidov shum bolasini qiyoslash jarayonida zamonaviy illatlat va ularning jamiyatdagi ta’sirlarini ko’rib chiqdik.

Bugungi kunda yolg’on illat emas fazilat bo’lib borayotganligi haqida Erkin Vohidov bundan 26 yil avval aytib o’tganligini, ammo haligacha yolg’on adabiyotimizda yetakchi mavzulardan, jamiyatimizda esa yetakchi illatlardan biri sifatida ekanligini guvohi bo’ldik.

Kundalik turmushda esa yolg’on odatiy tusga kirgan. Endi Qoravoy emas bugungi kun kishilari “SHUM BOLA”, Qoravoy yolg’onni ayb sanasa, bugungi kun kishilari rostni ayb sanamoqda.

Ushbu mavzular Erkin Vohidov she'rida atroflicha va keng yoritilgan. Ushbu she'rdagi kulgi ostida aslida haqiqat yashiringan.

Erkin Vohidovdan shunday jiddiy mavzularni ham kulgi ostiga olib, o'quvchilarga asl g'oyani yetkazishda yuksak mahorat talab qilinadi.

Shoir esa yuksak did, salohiyat va iste'dod kishisi ekanligiga ushbu she'ri misolida yana bir bor guvoh bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Vohidov E. Сайланма. 1-jild. T.Sharq. 2000.
- 2.Vohidov E. Qiziquvchan matmusa. T.2018
- 3.G'ofur G. Shum bola. Shum bola qissasi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. – T.: Fan, 1966 – B. 50
5. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami. 6 tom. – T.: Fan, 1986
6. Matyoqubova T. G'afur G'ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006